


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019-yil yanvar-noyabr*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 144 664,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 23 490,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 130,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 121 173,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 14 586,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari dinamikasi



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 107,3 % o'sish sur'ati bilan 144 664,5 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26 637,2 mlrd. so'mga oshgan) tashkil etdi va o'tgan davrlar bilan solishtirilganda o'zining eng yuqori ko'rsatkichiga erishdi. Joriy yil I chorakining o'sish sur'ati - 105,9 % bilan solishtirilganda 1,4 % punktga oshdi.


*-dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Jizzax, Surxondaryo, Namangan, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,7 % ga o'sdi va 23 490,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,2 % ulushiga to'g'ri keladi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

(yanvar-noyabr, mlrd. so'm, ulush %)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 121 173,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 3,8 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi, %**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (96,6 %), Sirdaryo (94,6 %), Toshkent (90,5 %), Navoiy (87,8 %) va Namangan (87,5 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (29,2 %), Xorazm (25,5 %) va Buxoro viloyatlarida (14,2 %) kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi va o'sish sur'atlari**


	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	23 490,7	130,7	121 173,8	103,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	647,9	135,0	4 003,3	106,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	1 450,7	126,9	9 373,7	103,6

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Buxoro	1 273,1	126,3	7 682,9	105,4
Jizzax	730,7	171,9	4 597,7	107,0
Qashqadaryo	301,2	41,6	8 534,8	109,5
Navoiy	698,5	156,3	5 006,7	102,7
Namangan	1 087,7	149,1	7 609,3	105,3
Samarqand	1 374,2	135,1	10 620,5	103,1
Surxondaryo	1 222,1	181,6	7 988,4	104,5
Sirdaryo	125,7	132,6	2 207,5	104,9
Toshkent	1 534,9	92,6	14 687,0	106,0
Farg'ona	1 456,0	111,5	10 025,7	103,9
Xorazm	1 469,0	149,3	4 302,4	105,5
Toshkent sh.	10 118,9	138,8	24 534,0	98,8

Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



**Chakana savdo tovar aylanmasida
mulchlik shakllarining ulushi, %**



Sirdaryo va Farg'ona viloyatlaridan tashqari barcha hududlarda haligacha chakana savdoda sezilarsiz darajada davlat mulkining ulushi saqlanib qolmoqda. Nisbatan yuqori ulush yirik davlat korxonalari qoshidagi chakana savdo korxonalari mavjud bo'lgan Toshkent shahri (0,56 %) va Navoiy viloyatida (0,6 %) kuzatildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	144 664,5	144 410,6	253,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 651,1	4 649,9	1,2

viloyatlar:

Andijon	10 824,4	10 821,9	2,5
Buxoro	8 956,1	8 952,9	3,2
Jizzax	5 328,3	5 325,1	3,2
Qashqadaryo	8 836,0	8 833,8	2,2
Navoiy	5 705,2	5 670,9	34,3
Namangan	8 697,0	8 693,4	3,6
Samarqand	11 994,6	11 992,4	2,2
Surxondaryo	9 210,5	9 208,9	1,6
Sirdaryo	2 333,2	2 333,2	-
Toshkent	16 221,9	16 218,0	3,9
Farg'ona	11 481,7	11 481,7	0,0
Xorazm	5 771,3	5 770,4	0,9
Toshkent sh.	34 653,0	34 457,9	195,1

2019 yil yanvar-noyabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 319,6 ming so'm (o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 5,4 % ga o'sgan).

2019-yil yanvar-noyabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo aylanmasi ko'rsatkichlari o'sishi kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (13 683,8 ming so'm), Navoiy (5 786,2 ming so'm) va Toshkent (5 566,7 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.


Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	4 319,6	105,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 474,3	107,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 504,7	104,2
Buxoro	4 700,4	106,3
Jizzax	3 908,1	110,5
Qashqadaryo	2 729,5	101,6
Navoiy	5 786,2	105,4
Namangan	3 135,0	107,1
Samarqand	3 133,4	103,8
Surxondaryo	3 554,7	108,3
Sirdaryo	2 791,6	104,2
Toshkent	5 566,7	103,2
Farg'ona	3 096,4	102,9
Xorazm	3 126,4	112,1
Toshkent sh.	13 683,8	105,7

Shuningdek, 2019-yilning yanvar-noyabr oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 % ni tashkil etib, 4 025,4 mlrd. so'mga yetdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,3 % o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga (respublikaning jami tovar aylanmasiga nisbatan 38,1 %) to'g'ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Toshkent (9,6 %), Buxoro (7,4 %) va Samarqand (7,2 %) viloyatlarida kuzatildi.




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 5,3 % dan 5,0 % ga kamaygan.

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi**

	Jami (mln. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	4 025 379,5	3 823 696,7	201 682,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	147 002,8	146 784,8	218,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	122 332,8	122 332,8	-
Buxoro	278 064,4	278 006,1	58,3
Jizzax	102 603,8	102 271,8	332,0
Qashqadaryo	183 870,6	183 529,8	340,8
Navoiy	135 165,4	124 679,5	10 485,9
Namangan	126 359,0	125 474,9	884,1
Samarqand	269 462,1	268 447,4	1 014,6
Surxondaryo	185 481,4	184 978,6	502,8
Sirdaryo	48 214,4	48 214,4	-
Toshkent	416 437,6	415 282,8	1 154,8
Farg'ona	225 634,8	225 633,2	1,6
Xorazm	79 692,1	79 062,9	629,2
Toshkent sh.	1 705 058,5	1 518 997,9	186 060,6


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 69 677,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 %ga o'sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, 49 022,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,4 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (78,9 %), Farg'ona (80,3 %), Samarqand (71,0 %), Buxoro (69,7 %) va Andijon (68,9 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Toshkent (54,0 %) va Navoiy (56,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	69 677,4	106,4	20 655,1	111,0	49 022,2	104,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 536,0	114,0	643,1	137,3	892,9	101,5
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	2 349,1	101,0	730,5	96,4	1 618,6	103,2
Buxoro	1 974,1	99,0	599,0	83,6	1 375,1	107,7
Jizzax	1 928,6	112,3	817,4	118,9	1 111,2	107,8
Qashqadaryo	2 371,5	93,8	825,1	73,6	1 546,4	109,9
Navoiy	1 744,1	86,2	937,9	80,2	806,2	94,3


	Jami (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Namangan	1 983,8	111,3	965,8	119,7	1 018,0	104,4
Samarqand	4 836,2	106,4	1 403,8	120,2	3 432,4	101,6
Surxondaryo	2 217,8	104,8	786,3	102,2	1 431,5	106,2
Sirdaryo	1 256,1	99,1	415,0	88,3	841,1	105,4
Toshkent	6 593,6	97,5	3 701,2	92,8	2 892,4	104,3
Farg‘ona	4 556,6	107,8	897,6	103,4	3 659,0	108,9
Xorazm	1 629,7	104,0	597,4	98,2	1 032,3	107,6
Toshkent sh.	34 700,1	110,8	7 335,0	145,6	27 365,2	104,1

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdosi yuqori o‘shish sur‘atlarga ega yirik korxonalar Toshkent shahrida (145,6 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasida (137,3 %) va Samarqand viloyatida (120,2 %) kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Qashqadaryo viloyatida (109,9 %) qayd etildi.

So‘nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o‘rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi 0,3 % dan 0,1 % ga tushgan.

Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushini tahlil qilsak, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (0,2 %), Toshkent (0,03 %), Navoiy (0,05 %), Andijon (0,01 %) viloyatlarida saqlanib qolmoqda. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkga tegishli.

Joriy yilning yanvar-noyabr oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 69 677,4 mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 69 603,5 mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 73,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent shahar 49,8 %, Toshkent 9,5 %, Samarqand 7,0 %, Farg'ona 6,5 % viloyatlarida qayd etildi.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
O'zbekiston Respublikasi	69 677,4	69 603,5	73,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 536,0	1 536,0	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	2 349,1	2 348,8	0,3
Buxoro	1 974,1	1 974,1	-
Jizzax	1 928,6	1 928,6	-
Qashqadaryo	2 371,5	2 371,5	-
Navoiy	1 744,1	1 743,2	0,9
Namangan	1 983,8	1 983,8	-
Samarqand	4 836,2	4 836,2	-
Surxondaryo	2 217,8	2 217,7	0,1
Sirdaryo	1 256,1	1 256,1	-
Toshkent	6 593,6	6 591,9	1,7
Farg'ona	4 556,6	4 556,6	-
Xorazm	1 629,7	1 629,7	-
Toshkent sh.	34 700,1	34 629,2	70,9

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Sirdaryo (99,1 %) Buxoro (99,0 %), Toshkent (97,5 %), Qashqadaryo (93,8 %) va Navoiy (86,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (114,0 %), Jizzax viloyatida (112,3 %), Namangan viloyatida (111,3 %) va Toshkent shahrida (110,8 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**